


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

***70730302-Neft va gaz quvurlari, baza va omborlarini qurish va  
ulardan foydalanish magistratura mutaxassisligining***

***MALAKA TALABI***

**Toshkent – 2024**



**ISHLAB CHIQILGAN:**

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti;

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
202 4 yil «01» 08 dagi 277 - sonli buyrug‘i bilan

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy talimning davlat talim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy talimning davlat talim standarti. Oliy talim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy meyoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy talim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r	bet
1. <b>Umumiy tavsifi</b> .....	4
1.1. Qo‘llanish sohasi.....	4
1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	5
1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4. Kasbiy vazifalari.....	5
2. <b>Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar</b> .....	8
3. <b>Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar</b> .....	9
4. <b>Fanlar katalogining tuzilishi</b> .....	10
Bibliografik ma’lumotlar.....	11
Kelishuv varag‘i.....	12

## **1. Umumiy tavsifi**

70730302-Neft va gaz quvurlari, baza va omborlarini qurish va ulardan foydalanish magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi kunduzgi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi.**

#### **1.1.1. Malaka talabinig qo'llanilishi.**

Malaka talabi 70730302-Neft va gaz quvurlari, baza va omborlarini qurish va ulardan foydalanish magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talabning asosiy foydalanuvchilari:**

Mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o'quv reja va fan dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas'ul – oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o'quv reja va fan dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha o'quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari va talabalari;

o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari);

bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

oliy ta'lim muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;

magistratura mutaxassisliklaridan birini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo'lgan bakalavrlar va boshqa manfaatdorlar.

### **1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

#### **1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalar.**

70730302 – Neft va gaz quvurlari, baza va omborlarini qurish va ulardan foydalanish arxitektura, qurilish va muhandislik ishi sohalaridagi mutaxassislik bo'lib, barcha ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid oid fanlarni o'qitish; O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlarida, ilmiy-tadqiqot markazlarida, loyihalash institutlarida, ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, ishlab chiqarish korxonalarida, turli mulkchilik shaklidagi qurilish, loyihalash va xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyatini tashkil etish va boshqarishga oid kompleks masalalarni yechishni qamrab oladi.

### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.**

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlarida, ilmiy tadqiqot markazlari, loyihalash institutlari, ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari;

oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari hamda ularda pedagogik faoliyat olib borish;

ilmiy-tadqiqot markazlari va loyihalash institutlari, ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari;

mutaxassislikka mos professional ta’lim muassasalari, akademik litseylar va oliy ta’lim muassasalarining bo‘limlari;

neft – gazni qayta ishlash sanoati obyektlari, neft va gazni saqlash omborlari, neft, neft maxsulotlarini saqlash inshootlari, yer osti omborlari va yer ustki gaz saqlash obyektlari, neft – gazni qayta ishlash korxonalarini mashina va jihozlari, kompressor stansiyalari, nasos stansiyalari.

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:**

*Ishlab chiqarish–texnologik faoliyat;*

*Loyiha-konstruktorlik faoliyati;*

*Tashkiliy-boshqaruv faoliyati;*

*Ilmiy - tadqiqot faoliyati;*

*Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta’lim muassasalarida ilmiy-pedagogik hamda o‘rta maxsus, professional ta’lim tizimida pedagogik faoliyati;*

*Axborot-tahliliy faoliyat*

### **1.2.4. Kasbiy vazifalari:**

70730302-Neft va gaz quvurlari, baza va omborlarini qurish va ulardan foydalanish mutaxassisligi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi xamda magistr faoliyatlarining sohalari,obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quydagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim.

#### **Ishlab chiqarish-texnologik faoliyatda:**

Qurilishga tayyorlash;

obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlarini amalga oshirish;

bino va inshootlarni loyihalash, qurish va foydalanish sohasida zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni amalga qo‘llash;

qurilish obyektlaridagi, neft va gaz quvurlaridagi mahsulotlarni diagnostika qilish, texnik holatini baholash;

qurilish sohasidagi ishlarni amalga oshirishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash.

neft- gaz ob’ektlarida neft va gaz omborlarini loyihalashtirish jarayonida foydalanadigan zamonaviy jihozlardan foydalanish;



neft-gaz omborlarini ishlash, ishlatish va loyihalashtirish amaliy masalalarini echish uchun yangi texnologiyalarni va dasturiy paketlarni qo‘llash;

maxsulotlarni sifat va miqdorini oshirishda qo‘llaniladigan zamonaviy jihozlaridan foydalanish;

neft va gaz quvurlarda ishlatiladigan jihozlarni ta‘mirlash;

neftbaza va AYOQSHlarni kapital ta‘mirlashdagi tutish ishlari uchun, texnologik jarayonlarning uskunalari va ishlarni mexanizatsiyalash;

texnologik mexanizmlarning xavfsiz ishlashi uchun uskunalarni ta‘mirlash, o‘rnatish va texnik xizmat ko‘rsatish.

kompresor stansiyalari kapital ta‘mirlash ishlarini olib borish;

nasosli neftbazalarda ta‘mirlash ishlarini olib borish texnologiyasini tanlash va texnologik hisoblarni bajarishni nazariy jihatdan asoslash.

#### **Loyiha-konstruktorlik faoliyatida:**

neft – gaz quvurlari va omborlari loyihasini ishlab chiqishi;

AYOQSHlar jihozlari konstruksiyalari loyihasini ishlab chiqish;

neft va gaz omborlaridan foydalanish va ishlatishni loyihalashtirish;

neft va gaz maxsulotlarini saqlash rezervuarlari ko‘rsatkichlarini hisoblash;

neft va gaz omborlarini ishlatishdagi turli texnologiyalar;

quvur orqali maxsulotlarni uzatish nasoslar;

quvurlar innovatsion texnologiya metodlari;

ilmiy-tadqiqot va loyihalash jarayonlari kabi kompleks masalalarni qamrab oladi.

#### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

zamonaviy axborot texnologiyalar tizimidan foydalanib ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish;

ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

bajarilayotgan ish rejasini tuzish va bu ishni nazorat qilish, ishni bajarish uchun zarur bo‘lgan resurslarni rejalashtirish, o‘z ishining natijalarini baholash;

ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong‘in, texnika va mehnat xavfsizligini talablariga mosligini monitoring qilish;

kasbiy etika qoidalariga rioya qilish.

#### **Ekspluatatsiya va servis xizmatini ko‘rsatish faoliyatida:**

Qurilish-ta‘mirlash ishlarini tashkil etish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish;

qurilish obyektlari eksploatatsiyasini tashkil etish va ulardan foydalanish bo‘yicha servis xizmatlari ko‘rsatish;

obyektlarning muhandislik kommunikatsiya tizimlaridan foydalanish, ta‘mirlash va ularga texnik xizmat ko‘rsatishni tashkil etish;

obyektlarining konstruksiyalari, uskunalari, muhandislik tizimlari va jihozlarini montaj qilish, sozlash, sinash va foydalanishga topshirish qoidalari va texnologiyasini bilishi;

obyektlarning muhandislik kommunikatsiya tizimlaridan foydalanish, ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatishni tashkil etish.

**Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;

mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, echilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

**O'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyatida**

O'qitish metodikasini egallash;

oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimining ta'lim muassasalarida mutaxassisligiga oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish;

zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noan'anaviy o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;

o'qitilayotgan fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish;

mustaqil ta'lim va ijodiy izlanish natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi turli usullar, vositalar va boshqa sohalarda o'z-o'zini

pedagogik faoliyat sohasidagi turli usullar, vositalar va boshqa sohalarda o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish;

arxitektura va qurilish sohasi uchun DTS, Malaka talablari, Davlat talablari va boshqa o'quv-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etish.

**Axborot-tahliliy faoliyatida:**

Loyihalar samaradorligini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

**2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.**

Ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosini, davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi; ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil taxlil qilish qobiliyatlariga ega bo'lishi;

milliy ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlar bo'yicha o'z nuqtai nazarini og'zaki va yozma bayon etishi, milliy g'oyaning nazariy asoslarni anglagan holda "Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot qurish" bosh g'oyasining mohiyatini hamda uning asosiy g'oyalar bilan mutanosibli va farqini bilishi;

tabiat va jamiyatda yuz berayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, insonning ma'naviy qiyofasi haqida bilimlarga ega bo'lishi, ulardan hayotda va kasbiy faoliyatida hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda foydalana olishi;

shaxsning inson, jamiyat, atrof muhitga bo'lgan munosabatini tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy me'yorlarni kasbiy faoliyatida qo'llay olishi.

yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtira olishi, takomillashtirishi va o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila bilishi;

o'zining individual bilimlariga tayangani holda ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni tushunishi va ularni tahlil qilishi;

o'z faoliyatida me'yoriy huquqiy hujjatlardan foydalana bilishi;

fikrlash madaniyati, muayyan tafakkur uslubiga, og'zaki va yozma nutqini aniq bayon qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

ilmiy faoliyati natijalarini his qilishga yo'naltirilgan ijtimoiy mas'uliyat shakllangan bo'lishi;

kasbiy faoliyatda o'zlashtirgan fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanishi, metodlarni tasniflashi, metodologik tamoyillardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;



xorijiy tillardan birini ilmiy muloqot va kasbiy malaka almashish vositasi sifatida egallagan bo‘lishi;

axborotni to‘plash, saqlash, ularga ishlov berish va ulardan foydalanish usullarini egallashi;

o‘zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

axborot, bilim, ma’lumotni bir-biridan farqlash malakasiga ega bo‘lishi, axborot texnologiyalaridan foydalana olishi;

bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi;

internet tarmog‘idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo‘lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishi;

ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishi;

ilmiy faoliyati natijalari bo‘yicha davlat va xorijda e’lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlashi;

patent olish uchun ish me’yoriy hujjatlar tayyorlay olishi;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e’lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo‘lishi lozim.

### **3. Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.**

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Magistratura mutaxassisligi bo‘yicha quyidagi amaliyot o‘tkaziladi:

1. Ilmiy amaliyot (stajirovka)

**4. Fanlar katalogining tuzilishi:**

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<b>1.00</b>	<b>Majburiy fanlar</b>				
1.01	ITM1104	Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	MFO‘M1104	Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi	120	4	1
1.03	NGOLQ1104	Neft baza hamda gaz omborlarini loyihalash va qurish.	120	4	1
1.04	NGQLQ1106	Neft-gaz quvurlarini loyihalash va qurish	180	6	1
1.05	NGQLB1110	Neft va gaz qurilishida loyiha boshqaruvi	300	10	1,2
1.06	NGSNO‘U1204	Neft-gaz obyektlarida nazorat o‘lchov uskunlari	120	4	2
1.07	NGSOQKX1206	Neft-gaz sanoati obyektlari qurilish konstruksiyalarini xisoblash	180	6	2
1.08	QKXA1310	Avtomobillarga yoqilg‘i quyish shaxobchalari va avtomobillarga gaz to‘ldirish kompressor stansiyalarini qurish va ishlatish	300	10	2,3
Kvalifikatsiya		muhandis-konstruktor, pedagog-tadqiqotchi			
2.00		<b>Tanlov fanlari</b>	<b>360</b>	<b>12</b>	<b>2,3</b>
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	360	12	2,3
		<b>Jami:</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
<b>3.00</b>		<b>Ilmiy faoliyat</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
3.01	ITIMDT3130	Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash	1140	38	1,2,3,4
3.02	IPI3112	Ilmiy-pedagogik ish	240	8	1,2,3
3.03	IA(S)3418	Ilmiy amaliyot (stajirovka)	420	14	2,4
		<b>Jami:</b>	<b>3600</b>	<b>120</b>	
		<b>HAMMASI</b>	3600		

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### **Tayanch soʻzlar:**

Davlat taʼlim standarti, malaka talablari, oʻquv reja, kompetensiya, modul, kasbiy faoliyat sohasi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistratura va bakalavriatning asosiy oʻquv reja va fan dasturi, qonun, qoida, qaror, oliy taʼlim, oʻquv jarayoni, magistratura, konsalting, loyiha-qidiruv, pedagogik, ilmiy-pedagogik ish, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ish, magistrlik dissertatsiyasi, elektr taʼminotining releli himoyasi, elektr energiyaning sifati, energetik tekshirish, reaktiv quvvatni kompensatsiyalash, elektr taʼminoti tizimining avtomatikasi, baholash, sifat nazorat, davlat attestatsiyasi, mustaqil taʼlim, oʻquv fanlari bloki, mundarija, oliy taʼlim muassasasi, taʼlim jarayoni, profil, amaliyot obʼekti, kadrlar sifati, yuklama, yuklama hajmi, ilmiy faoliyat, ichki nazorat, yakuniy davlat nazorati, davlat-jamoatchilik nazorati, tashqi nazorat, moddiy-texnik baza, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni, maxsus fanlarni oʻqitish metodikasi, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.




Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta’lim muassasalari hamda kadrlar iste’molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:


Toshkent arxitektura-qurilish universiteti  
Rektor  B. Tulaganov  
2024 yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_  
M.O.:

KELISHILGAN:


O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish  
tadqiqotlari markazi

Direktor  M. Boltabayev  
202\_ yil “ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_  
M.O.:

Toshkent davlat transport universiteti

Rektor  O. Abduraxmonov  
“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_  
M.O.:


Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat  
texnika universiteti

Rektor  S. Turabdjano  
202\_ yil “ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_  
M.O.:

“O‘ZLITINEFTGAZ” AJ

Boshqaruvi raisi birinchi o‘rinbosari  
L. Ismailov  
202\_ yil “ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_  
M.O.:

“O‘zog‘ insanoatloyiha” AJ

Direktor  B. Xazratqulov  
202\_ yil “ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_  
M.O.:

“TREST 12” AJ

v.y.b bosh direktor  
R. Zakirov  
202\_ yil “ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_  
M.O.: